



LINGVOPOETIKA VA UNING TADQIQOT OBYEKTIGA DOIR

Ismoil Xojaliyev

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jo'rayeva Kamolaxon

FarDU 4-talabasi

Annotatsiya: maqolada lingvopoetika, uning tadqiqot obyekti, o'ziga xos jihatlari hamda tadqiqot metodlari, lingvopoetikaga berilgan tavsiflar va mazkur hodisaga turlicha yondashuvlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, lingvopoetikaning o'rganish obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, badiiy matnni lingvopoetik tahlili.

Abstract: The article discusses linguopoetics, its object of study, specific features, research methods, the characteristics attributed to linguopoetics, as well as various approaches to this phenomenon.

Key words: linguopoetics, the object of study of linguopoetics, its subject, goals and objectives, linguopoetic analysis of a literary text.

Аннотация: В статье рассматриваются лингвопоэтика, её объект исследования, специфические особенности, методы исследования, характеристики, данные лингвопоэтике, а также различные подходы к данному явлению.

Ключевые слова: лингвопоэтика, объект изучения лингвопоэтики, предмет, цели и задачи, лингвопоэтический анализ художественного текста.



Bugungi davrga kelib, globallashuv, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi, sun'iy intellektning yuzaga kelishi, elektron tarjimalarning amalga oshirish imkoniyatining paydo bo'lishi natijasida madaniyatlararo uyg'unlashuvi, fanlarning o'zaro integratsiyalashuvi avj oldi. Bu esa tilshunoslikning boshqa ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar bilan munosabati, o'zaro ta'sirlashuvi kuchaydi. Bu esa tilshunoslikning nisbatan yosh sohasi bo'lgan lingvopoetikaning ham jadal rivojlanishiga olib keldi.

“Lingvopoetika” terminiga ilmiy adabiyotlarda shunday ta'rif beriladi: “filologiyaning alohida bo'limi bo'lgan lingvopoetikaning predmeti bu – yozuvchi badiiy asarda foydalanadigan va g'oyaviy-badiiy maqsadni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan estetik ta'sirni ta'minlovchi til vositalarining majmui hisoblanadi”.¹

Badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishda esa quyidagilarga e'tibor qaratish zarur deb hisoblanadi: “Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

1. Asarning shoir ijodidagi o'rni;
2. Matnning janr va mavzuviy xususiyatlarini yoritish;
3. Asar g'oyasini aniqlash;
4. Emotsional ohangini tahlil qilish;
5. Ritmika, she'riy vazn va qofiya xususiyatlarini tadqiq etish;
6. Badiiy usullarni tavsiflash”².

Boshqa bir lug'atda esa lingvopoetik tahlilni “Badiiy matnning lingvopoetik tahlili – bu she'riy asarni til birliklarining tanlanishi, joylashtirilishi va tuzilishiga xos xususiyatlar hamda poetika nuqtai nazaridan tahlil qilishdir. Bu – she'riy shaklni tahlil qilish bo'lib, u she'r ma'nosini asoslangan talqin qilish uchun kalit vazifasini bajaradi. Boshqacha aytganda, bu turdagi tahlil badiiy matnni “muayyan estetik ideal” nuqtayi nazaridan “dunyo

¹ Задорнова В.Я. Лингвопоэтика. Слово в художественном тексте.// Язык, сознание, коммуникация: СБ. статей/ Отв.ред. В.В Красных, А.И. Изотов. – М.: МАКС Пресс, 2005. – Вып. 29. – С. 160.

² Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО «Пилигрим», 2010. –С. 180



obrazi” va “muallif obrazi”ni aks ettiruvchi til birliklarini tahlil qilish va tizimlashtirish sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, lingvopoetik tahlilga (boshqa tahlil turlariga nisbatan ancha kuchliroq darajada) adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan chuqurroq kirib borish xosdir”, deb ta’riflanadi.³

Yangi yo‘nalishdagi tadqiqotning obyekti til sanaladi, shu til orqali ifodalangan poetik maqsad yoki poetik hodisa, uning mazmuniy strukturasini esa lingvopoetika o‘rganadi. Yozuvchi uslubining turli-tumanligi, xilma-xilligi, ta’sirchanlik darajasi, o‘zgachaligi, kutilmaganligi kabilarni ifodalovchi vositalar tilning lingvopoetik asosini tashkil qiladi. Muallifning kommunikativ niyati va maqsadi, hozirjavoblighi, qahramonlar ruhiyati hamda xarakteriga xos bo‘lgan jihatlar lingvopoetik strukturada namoyon bo‘ladi. Ilmiy tushunchalarning mazmuni nutq, matn, ifoda tarkibida ayon bo‘ladi. Shu bois ham badiiy matnning har qanday tuzilishi yozuvchi yoki shoirning poetik mahorati negizida lingvistik birliklar strukturasiga joylanadi.

Shuning uchun ham lingvopoetikaning materiali hisoblangan matn umumiy til qonuniyatlari yig‘indisi sifatida talqin qilinadi.

Bizga ma’lumki, badiiy asarning asosiy xususiyati obrazlilikdir, obrazlilik, bu – san’atdir. Badiiy adabiyot esa so‘z san’atidir. So‘z san’atini tadqiq etish adabiyotshunoslik sohasining obekti sanaladi. So‘z san’ati til, nutq vositasida vujudga kelgani bois, nutqning qanday namoyon bo‘lishini, so‘z san’atining lisoniy xususiyatlarini tilshunoslik fani tahlil qiladi. Lingvopoetika sohasidagi tadqiqotlar metodi va metodologiyasi tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari nazariyasiga asoslanar ekan, bu o‘z-o‘zidan lingvopoetika tushunchasi ostida tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining birlashishiga to‘g‘ri keladi.

Lingvopoetik tahlil jarayonida poetik aktuallashgan – poetik mazmun bilan to‘yintirilgan til birliklari aniqlanadi va ular tegishli tarzda baholanadi. Tilshunoslikda

³ Стилистический энциклопедический словарь русского языка [электронный ресурс] / под ред. М.Н. Кожинной; члены редколлегии: Е. А . Баженова, М.П. Котюрова, А.П. С ковородников. – 2-е изд., стереотип. — М.: Флинта: Наука, 2011. –С.201-



mazkur yangi sohani ma'lum bir tizim asosida yaxlit planda o'rganish yuzasidan tilshunoslar turli xil qarashlarini bayon qilganlar. Biroq masala mohiyati va lingvopoetikani mukammal tadqiq etishda ular bergan nazariyalar asos hisoblansa-da, tilning turli sath birliklarida voqelanuvchi lingvopoetik tahlil jarayonlari o'zining mukammal, qat'iy bir tizim sifatida hali aniq yechimini topgani yo'q. Shu maqsadda lingvopoetika sohasining tahlil turlari sifatida tadqiqotning mundarijasi quyidagicha belgilandi:

1. Fonetik vositalarning poetik funksiyasi (fonopoetika) fonetik hodisalar – tovush orttirish, tovush tushishi, tovush almashinishi va, shuningdek, adabiyotimizdagi ba'zi she'riy san'atlar badiiylikni ta'minlovchi vosita sifatida tadqiq etiladi. Ayrim o'rinlarda esa janr talabi bilan tovush almashinishi, urg'uning maqsadli berilishi holatlari ko'zga tashlanadi.
2. Leksik vositalarning poetik funksiyalari (leksopoetika) so'zning nozik ma'no atfenkalari, nutq vaziyati bilan bog'liq variantlari, invariant strukturasidagi mavjud ma'nolar ko'magida kontekstual ma'nolar shakllanadi. Mazkur tadqiqotda so'zlarning shakliy, mazmuniy turlari, arxaizm va istorizmlar, dialektizmlarning qo'llanish usullari kabi masalalar leksopoetik jihatdan tahlil etiladi.
3. Sintaktik vositalarning poetik funksiyalari (sintaktik poetika). Ushbu yo'nalishda matn komponentlari lingvopoetik jihatdan tadqiq etiladi. Muallifning g'oyasi va maqsadini aniqlashda ekspressiv sintaktik vositalarga e'tibor qaratiladi.
4. Morfopoetika – lingvopoetikaning bu turida badiiy asarda maqsadli qo'llangan morfemalar va morfologiya, so'z yasalishi singari vositalar tahlil qilinadi.

Darhaqiqat, biror badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishning bir qator tamoyillari mavjud. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida to'liq tadqiq etgan M.Yo'ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy xusiyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1. "Shakl va mazmun birligi asosida yondashuv Bu kabi yondashuvda shakl va mazmun izchil bir birini to'ldirib turishi lozim.



2. Makon va zamon birligidan kelib chiqish, ya'ni matnda berilgan makon va zamon doimo bir xil vaqt va muddatda bo'lishi lozim.
3. Umumxalq tili va adabiy til munosabati asosida baholash; standart til doiralaridan chiqmagan xolatda tilga umumiy baho berish.
4. Badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv: matnda ishlatilagan unsurlardan badiiy estetik birlik hosil qila olish.
5. Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash.
6. badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash;
7. badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash".⁴

Demak, lingvopoetika tilshunoslik va adabiyotshunoslik kesishgan nutqtada yuzaga kelgan tadqiqot sohasi bo'lib, tadqiqot obyektiga ikki fan tadqiqot metodlari orqali yondashiladi. Agar tadqiqot obyektiga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashilsa, asosiy e'tibor matndagi g'oyaviylik, obrazlilik, detallashtirish masalalariga qaratiladi. Tilshunoslikda esa g'oyaviy-badiiylikka xizmat qiluvchi til birliklarining badiiy-estetik funksiyasi ochib beriladi.

⁴ Yo'ldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. dokt...dis.-Toshkent, 2009.3



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Задорнова В.Я. Лингвопоэтика. Слово в художественном тексте.// Язык, сознание, коммуникация: СБ. статей/Отв.ред. В.В.Красных, А.И.Изотов. –М.: МАКС Пресс, 2005. –Вып. 29. –С. 160.
2. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО «Пилигрим», 2010. –С. 180
3. Стилистический энциклопедический словарь русского языка [электронный ресурс] / под ред. М.Н. Кожиной; члены редколлегии: Е. А. Баженова, М.П. Котюрова, А.П.Сковородников. – 2-е изд., стереотип. –М.: Флинта: Наука, 2011. –С.201.
4. Yo‘ldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan.dokt...dis. –Toshkent, 2009.